



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 20-aprel, payshanba,
47 (23.768)-son

**KUN
HIKMATI**

Oshkorlik xatoni
fosh qilishdan
ko'ra, xatolarning
takrorlanishiga
yo'l qo'ymaslikni
ta'minlashi zarur

1913-yil aprel oyidan chiqq boshlagan



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz

KONSTITUTSIYA – MENIKI, SENIKI, BIZNIKI!



MUDDATIDAN OLDIN OVOZ BERISH BOSHLANDI

Markaziy saylov komissiyasining qaroriga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni bo'yicha referendumda muddatidan oldin ovoz berish 2023-yil 19-26-aprel kunlariga belgilangan. Fuqarolar ish kunlari soat 9:00 dan 18:00 ga qadar, dam olish va bayram kunlari soat 12:00 dan 16:00 ga qadar referendum uchastkasiga borib, muddatidan oldin ovoz berishi mumkin.

Kecha viloyatimizdagi referendum uchastkalarida ham mazkur jarayon boshlandi.

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti akademik litseyi o'qituvchisi Guljahon Hotamova 30-aprel kuni xizmat safari bilan boshqa hududda bo'lishi sababli bugun o'zi yashab turgan Samarqand shahar Mingtut mahallasidagi 89-referendum uchastkasiga borib, muddatidan oldin ovoz berdi.

Yangilanayotgan Konstitutsiyamiz bilan tanishib chiqdim, qolaversa, referendum bo'yicha targ'ibot tadbirlarida qatnashib, huquqshunos va ekspertlarning fikrlarini eshitib, bosh qonunimizdagi yangilik va o'zgarishlar mohiyatini tushunib oldim, – deydi G.Hotamova. – Haqiqatan ham Konstitutsiyamizning yangi tahririda xalqimiz va davlatimizning ertangi kuni bilan bog'liq juda katta o'zgarishlar kiritilgan. Xususan, biz pedagoglarning huquq va manfaatlarimiz konstitutsiyada mustahkamlab qo'yilmoqda. Shuning uchun ham men referendumga bee'tibor bo'lmay, ovoz berish kuni ilmiy ishim tufayli safarda bo'lishimni bildirib, uchastka komissiyasiga murojaat qildim va muddatidan oldin ovoz berdim.

Uchastka komissiyasi raisining ma'lum qilishicha, saylov jarayonini boshqarishning axborot tizimidagi ma'lumotlar bo'yicha hozircha uchastkada 1100 nafardan ortiq ovoz beruvchi ro'yxati mavjud. Muddatidan oldin ovoz berish uchun komissiyaga ovoz beruvchilar sonining 5 foizi miqdorida byulletenlar yetkazib berilgan.

Prezidentimiz joriy yilning 1-fevralida Andijon viloyatiga tashrifi davomida Bo'ston tumanida ijtimoiy soha muassasalari ishsizlik ta'minotini davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar bilan tanishgan edi. 2023-yil 10-aprel kuni esa «Ijtimoiy soha obyektlarining ishtish tizimlarini davlat-xususiy sheriklik asosida modernizatsiya qilish to'g'risida»gi qaror qabul qilindi.

Unda ijtimoiy soha obyektlaridagi ishtish tizimlarining kuz-qish mavsumida barqaror ishlashini ta'minlash, ushbu obyektlarga issiqlik energiyasini uzluksiz yetkazib berish hamda energiya resurslaridan oqilona va samarali foydalanish, shuningdek, soha-ga xususiy investitsiyalarni keng jalb qilish ko'zda tutilgan.

Qarorda davlat va xususiy sheriklar tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar aniq belgilab berildi. Joriy yil 1-iyungacha qadar ijtimoiy soha obyektlarining issiqlik ta'minoti tizimini modernizatsiya qilish loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqilib, davlat ekspertizasi-dan o'tkaziladi, 1-iyulgacha loyihalar bo'yicha konsepsiyalar tasdiqlanadi. Shu yilning 1-avgustidan tenderlarni tashkil qilish hamda xususiy sheriklarni shaffof va ochiq shartlarda tanlab, modernizatsiya ishlarini boshlash belgilandi.

QVP, maktab va bog'chalarni endi tadbirkorlar isitadi



Mazkur qaror bilan viloyatimizda eksperiment tariqasida 6 ta tumanda joylashgan 871 ijtimoiy soha obyektlari, jumladan, 442 ta umumta'lim maktabi, 273 ta maktabgacha ta'lim, 100 ta sog'liqni saqlash va 56 ta madaniyat, musiqa va sport muassasalari uchun tadbirkorlar bilan davlat-xususiy sheriklik bitimlari tuziladi, – deydi viloyat molliya boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari Oybek Oqbo'tayev. – Jumladan, Jomboy tumanida 116 ta, Narpay tumanida 147 ta, shuningdek,

Toyloqda 128 ta, Kattaqo'rg'onda 198 ta, Samarqand tumanida 124 ta hamda Ishtixon tumanidagi 158 ta muassasa qamrab olinadi. Ayni paytda viloyatdagi barcha ijtimoiy soha muassasalari xatlovdan o'tkazilib, texnik nuqson va kamchiliklar aniqlanmoqda. Qarorga ko'ra, barcha ishtish tizimi, issiq suv tarmoqlari, ko'mixona va pechlar ta'mirlanib, tayyor holga keltirilgach, tadbirkorlar ixtiyoriga o'tkaziladi.

Rejaga ko'ra, 2023-yilda Jomboy tumani-

da 56 ta, Narpayda 70 ta umumta'lim maktabi, Toyloq tumanida 15 ta, Kattaqo'rg'onda 19 ta tibbiyot muassasalari, Samarqand va Ishtixon tumanlarida 11 tadan madaniyat uyi, musiqa va sport maktablarining ishtish tizimlari tadbirkorlar qo'lga o'tadi. Shuningdek, davlat-xususiy sheriklik shartnomasiga ko'ra, Kattaqo'rg'on tumanida 64 ta, Samarqand tumanidagi 42 ta bog'cha yil yakunigacha zamonaviy ishtish tizimlari bilan ta'minlanadi.

Shartnomaga ko'ra, tadbirkorlar ijtimoiy soha obyektlarida O'zbekistonda kamida bir yil sinovdan muvaffaqiyatli o'tgan va xizmat qilish kafolati kamida 15 yilni tashkil qiladigan qozonlarni o'rnatishlari lozim. Loyihalarni amalga oshirishda mahalliy hokimliklar investitsiya mablag'ining 50 foizini davlat budjeti hisobidan qoplab beradi. Ishtish obyektlari va tizimlari tadbirkorlarga bitimda belgilangan muddatda vaqtinchalik bepul foydalanishga beriladi.

Ekspluatatsiya xarajatlari o'n yil muddatda davlat budjeti hisobidan ajratib boriladi hamda xususiy sheriklar tomonidan bajariladigan ishlar va xizmatlar sifati doimiy nazorat qilinadi.

Dilmurod TO'XTAYEV.

Fuqarolar xorijda ham himoya qilinadi

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari nafaqat o'z hududida, balki uning tashqarisida ham davlat tomonidan himoya qilinadi va ularga homiylik ko'rsatishni kafolatlaydi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi loyihasi 23-moddasida ushbu norma belgilangan. Xo'sh, bu nima degani?

Hech kimga sir emas, fuqarolarimiz xorijiy davlatlarga, xususan, Rossiya Federatsiyasiga borib ishlaydi. Ba'zan o'zga yurtda kimdir pasportini yo'qotishi yoki almashtirish muddatini o'tkazib yuborishi mumkin. Tabiiyki, pasportsiz o'zga yurtda yashay olmaydi yoki yurtiga qayta olmaydi. Bunday vaziyatda fuqaro o'sha yurtdagi elchixonaga murojaat qiladi. Avvallari elchixonaga fuqaroga shaxsini tasdiqlovchi vaqtinchalik hujjat berardi. Fuqaro shu hujjat bilan O'zbekistonga qaytib, yangi pasport olib ketardi. Bunda ancha vaqt va mablag' sarflanardi. Endilikda O'zbekiston Respublikasining chet davlatdagi konsullik muassasasi fuqaroga xorijga chiqish biometrik pasportini rasmiylashtirish, berish va almashtirishga oid davlat xizmatlarini ko'rsatyapti. Bu tartib Respublika Prezidentining 2022-yil 17-iyundagi «O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga xorijga chiqish biometrik pasportini berishga doir davlat xizmati ko'rsatish tartibini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorida belgilangan.

Shuningdek, Tashqi mehnat migratsiyasi agentligining Rossiya, Janubiy Koreya, Turkiya, Qozog'iston kabi mamlakatlarda vakolatxonalar mavjud bo'lib, ular o'sha yurtda mehnat huquqlari buzilgan fuqarolarga yordam beradi. Masalan, Rossiyada yaqin gacha 6 ta vakolatxona bo'lsa, 2022-yilda ehtiyojdan kelib chiqib yana 11 ta vakolatxona ochildi. Vakolatxonalar ish beruvchi bilan

mehnat shartnomasi buzilgan, ish haqini ololmayotgan yoki boshqa mehnat huquqlariga oid muammolarga duch kelgan fuqarolarga huquqiy, moddiy, ijtimoiy yordam beradi. Masalan, Tashqi mehnat migratsiya agentligi Samarqand viloyati hududiy filiali ma'lumotiga ko'ra, 2023-yilning boshidan buyon xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan samarqandlik 534 nafar mehnat muhojirlariga huquqiy, moddiy, ijtimoiy yordam ko'rsatilgan.

Bundan tashqari, xorijda pulsiz, ishsiz og'ir ahvolda qolgan fuqarolarga ham ko'mak berilib, davlat hisobidan ular o'z uylariga qaytarilmoqda. Yangilanayotgan Konstitutsiyaga kiritilayotgan ushbu o'zgarishlar ham amalda o'z ifodasini topmoqda. Shuningdek, davlat xorijda yashayotgan vatandoshlar bilan aloqalarni saqlab qolish hamda rivojlantirish to'g'risida xalqaro huquq normalari-ga muvofiq g'amxo'rlik qilishi ham yangi qonun loyihasi-ning 23-moddasida belgilanmoqda.

Bundan tashqari, hukumatimiz tomonidan xorijga o'qishga ketgan talaba-yoshlarga ham g'amxo'rlik ko'rsatilmoqda. Masalan, Rossiya va Ukraina davlatlari o'rtasida kelib chiqqan urush tufayli 2022-yilning 26-apreldan Ukrainada ta'lim olayotgan o'zbekistonlik talabalarning o'qishini O'zbekiston davlat oliy ta'lim muassasalariga ko'chirishga ruxsat berildi. Shuningdek, o'tgan yilning 1-noyabridan Rossiya davlatining Ukraina bilan chegaradosh hududlaridagi oliy ta'lim muassasalaridan ham o'zbekistonlik talabalarning o'qishi Vatanga ko'chirildi.

Bu kabi misollar O'zbekiston Respublikasi o'z fuqarolarini xorijda ham himoya qilayotganining isbotidir. Fuqarolarning haq-huquqlari qayerda bo'lsa ham davlat tomonidan himoya qilinishi Qomusimizda mustahkamlab qo'yilsa, yurtdoshlarimiz uchun yanada keng imkoniyatlar eshigi ochiladi.

Xurshida ERNAZAROVA.

TAYINLOV

ABILOV Feruz Ne'matullayevich - viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari lavozimiga tayinlandi.

F.Abilov ushbu tayinlovga qadar viloyat hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari lavozimida faoliyat olib borgan.



XUDOYBERDIYEV Shunqor Farnonovich - viloyat hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari lavozimiga tayinlandi.

Sh.Xudoyberdiyev ushbu tayinlovga qadar Past Darg'om tumani hokimi lavozimida ishlab kelayotgandi.

MUROTQOBILOV Vahobjon Abdug'aniyevich - Past Darg'om tumani hokimi lavozimiga tasdiqlandi.

V.Murotqobilov mazkur tayinlovga qadar O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligidagi boshqarma boshlig'i, vazirlik hududidagi «Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi» DUK bosh direktori vazifalarida ishlagan.



AMALDAGI KONSTITUTSIYADA X bob. Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari

43-modda.
Davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi.

44-modda.
Har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi.

45-modda.
Voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg'iz keksalarning huquqlari davlat himoyasidadir.

46-modda.
Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI REFERENDUMI 2023

KONSTITUTSIYAVIY QONUN LOYIHASIDA

X bob. Inson hamda fuqaroning huquqlari va erkinliklari kafolatlari

54-modda.
Insonning huquq va erkinliklarini ta'minlash davlatning oliy maqsadidir. Davlat inson hamda fuqaroning Konstitutsiyasi va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi.

55-modda.
Har kim o'z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqli.

Har kimga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi.

Har kimga buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash uchun uning ishi qonunda belgilangan muddatlarda vakolatli, mustaqil hamda xolis sud tomonidan ko'rib chiqilishi huquqi kafolatlanadi.

Har kim O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga va xalqaro shartnomalariga muvofiq, agar davlatning huquqiy himoyaga doir barcha ichki vositalaridan foydalanib bo'lingan bo'lsa, insonning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga murojaat etishga haqli.

Har kim davlat organlarining yoxud ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari yoki harakatsizligi tufayli yetkazilgan zararining o'rni davlat tomonidan qoplanishi huquqiga ega.

56-modda.

Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning mavjud shakllari hamda vositalarini to'ldiradi, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga va inson huquqlari madaniyatini yuk-saltirishga ko'maklashadi.

Davlat inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar faoliyatini tashkil etish uchun shart-sharoitlar yaratadi.

57-modda.

Mehnatga layoqatsiz va yolg'iz keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarining huquqlari davlat himoyasidadir.

Davlat aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarining turmush sifatini oshirishga, jamiyat va davlat hayotida to'laqonli ishtirok etishi uchun ularga shart-sharoitlar yaratishga hamda ularning asosiy hayotiy ehtiyojlarini mustaqil ravishda ta'minlash imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan choralarini ko'radi.

Davlat nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalar obyektlari va xizmatlaridan to'laqonli foydalanishi uchun shart-sharoitlar yaratadi, ularning ishga joylashishiga, ta'lim olishiga ko'maklashadi, ularga zarur bo'lgan axborotni to'sqinliksiz olish imkoniyatini ta'minlaydi.

58-modda.

Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar. Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek, jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarini ta'minlaydi.

Prezident farmoniga ko'ra

Aholini uy-joy bilan ta'minlash tizimida o'zgarishlar bo'ldi

Davlatimiz rahbarining joriy yil 13-aprelda "2023-yilda bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlari orqali aholini uy-joy bilan ta'minlash dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi.

Unga ko'ra, jismoniy shaxslarga ipoteka krediti berishning zamonaviy va barqaror tizimini shakllantirish, uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj bo'lgan oilalarni davlat tomonidan manzilli qo'llab-quvvatlash, mahalliy va xalqaro kapital bozorlarida moliyaviy resurslarni jalb qilish va keyinchalik ularni ipoteka kreditlarini qayta moliyalashtirishga yo'naltirish maqsadi nazarda tutilgan.

Farmon asosida ipoteka kreditlari va subsidiyalarni ajratish tartibiga quyidagi o'zgartirishlar kiritildi:

- banklarga ipoteka kreditlarini rasmiy daromadga ega bo'lmagan jismoniy shaxslarga ham ajratishga ruxsat etildi. Bunda, ushbu fuqarolarning to'lov qobiliyatining bank kartasidagi aylanmasi, ijara, kommunal va boshqa xarajatlarini hisobga olish orqali aniqlanadi;

- banklarga dastlabki badal miqdori, imtiyozli davr muddati va boshqa ko'rsatkichlardan kelib chiqib, kreditlar bo'yicha tabaqalashtirilgan foiz stavkalarini o'rnatish huquqi berildi. Bunda, dastlabki badalni ko'proq to'lagan fuqaro arzonroq kredit olish imkoniga ega;

- subsidiyaga ajratilgan mablag'larni tezroq ishlatish uchun subsidiya xabarnomasining amal qilish muddati 12 oydan 4 oyga tushirildi. Bunda, fuqaro 4 oyda sertifikatdan foydalana olmasa, u subsidiyaga qayta ariza topshirishi mumkin;

- Iqtisodiyot va moliya vazirligiga xalqparvar komissiyalarining xulosasiga asosan, xato ajratilgan subsidiya sertifikatlarini to'g'ridan-to'g'ri bekor qilish va to'lovlarni to'xtatish huquqi berildi.

- Qurilish tashkilotlari uchun imtiyozlar:
 - qurilish tashkilotlariga ko'p kvartirali uy-joylarni qurish uchun 18 oygacha muddatga 14 foiz stavkada kreditlar ajratiladi;

- pudrat tashkilotlariga qurilayotgan uy-joylarni qavat-maqavat garovga qo'yish va har bitta qavat uchun kredit olish huquqi berildi (hozirgi kunga qadar uy tomi yopilganidan keyin uni garovga qo'yish va kredit olish mumkin edi);

- banklar o'z hisobidan beradigan kreditlarini davlat tomonidan qayta moliyalashtirish amaliyotini davom ettiradi.

Bunda, qurib bitkazilmagan uyni sotib olish uchun fuqaro bankdan 24-26 foizdan kredit oladi va uy bitguniga qadar (1-2 yil davomida) to'lovlarni ushbu foizdan amalga oshiradi. Uy bitganidan keyin ushbu kredit davlat tomonidan qayta moliyalashtiriladi, 18 foizlik kreditga aylanadi.

- Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash jamg'ar-masi hisobidan quruvchilarga kafillik va kompensatsiya to'lash tartibi uzaytirildi. Bunda, kompensatsiya - har bir uy-joy uchun kreditning 5 milliard so'midan, kafillik - 2,5 milliard so'midan oshmagan miqdoriga beriladi.

- 2025-yil 1-yanvargacha qadar yuqori markali sement, arralanadigan yog'och, fanera, taxtadan yasalgan opalubka va oynani import qilishda bojxona bojining "0" stavkasi qo'llaniladi.

- "Yangi O'zbekiston" va boshqa davlat dasturlari doirasida qurilgan massivlarning bo'sh yerlarida ko'p qavatli uy-joylar qurishni davom ettirish va 2023 yilda qurish hajmlarini 90 mingtagacha yetkazish taklif etilmoqda. Bunda:

- 38 ta "Yangi O'zbekiston" massivlarida 31 mingta, boshqa davlat dasturlaridagi massivlarda 8 mingta, xususiy pudrat tashkilotlari hisobidan 51 mingta kvartiralar qurilishi belgilanmoqda;

- "Yangi O'zbekiston" massivlarini kengaytirish hamda 9 ta yangi massivlarni tashkil qilish uchun 140 gektar qishloq xo'jaligi yerlarining toifasi o'zgartirilmoqda va hokimlar zimmasiga ajratiladigan yerlarning 5 baravari miqdorida yangi yerlarni o'zlashtirish vazifasi yuklanmoqda;

- massivlarning ichki yo'llarini qurish Avtomobil yo'llari qo'mitasi zimmasiga yuklanmoqda.



Zamon tezlashdi. Hayot tarzimiz o'zgarib bormoqda. Kechagi intilishlar bugunga, bugunning harakatlari ertaga to'g'ri kelmay qolyapti. Davr tezkorlikni va ilg'or, innovatsion fikrlashni taqozo etmoqda.

Respublikamizda keyingi yillarda jamiyatimiz, iqtisodiyotimizning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi, adolatli, farovon jamiyat qurishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Albatta, bu islohotlarni hayotga tatbiq etish

Malakali kadrlar muammosi

yoxud riyozatsiz ravnaq yo'q

uchun mutaxassis nafaqat malakali, balki fidoyi, vatanparvar, halol, tashkilotchi ham bo'lishi kerak. Ammo bunday talablarga javob beradigan kadrlar bizda yetarli miqdordagi yo'q.

Keyingi yillarda mamlakatimizda juda ko'p sohalaridagi rahbar kadrlar, umuman, mutaxassislarining almashayotganining guvohi bo'lyapmiz. Bu zamon talabiga javob beradigan yetuk kadrlarning tanqis ekanligiga ishora. Nahotki, bu masalada shunchalar oqsab qolgan bo'lsak? Afsuski, respublikamizning ayrim shahar va tumanlarida, hatto viloyatlarda ham boshqaruv tizimida egallab turgan lavozimiga nomunosib rahbarlar hali-hanuz topiladi. Qo'pol, o'ziga bino qo'ygan, haqoratlash, kerak bo'lsa, urinishi shior qilgan, korrupsiya quli bo'lgan, mutaxassislarining fikri bilan hisoblashmaydigan «komanda» bilan yangi jamiyat qurib bo'lmashligini bilgan Prezidentimiz davlat

boshqaruv tizimini to'liq isloh qilmoqda. Barcha toifadagi rahbarlarni dunyoqarashini o'zgartirishga chorlab, poraxo'r, xiyonatkorlarga qattiq jazo choralarini ko'ryapti. Qaysi yo'nalish bo'lmasin, u yerda o'z sohasining yetuk mutaxassisi ish olib borishi va ularning roli oshirilishi lozimligini har bir chiqishda ta'kidlamokda. Negaki, malakali, o'z sohasining ustasi bo'lgan mutaxassislarining fikri inobatga olinayotgan tarmoq tez sur'atlarda rivojlanadi, qisqa muddatda ko'zlangan natijalarga erishiladi. Kun tartibiga qo'yilgan har qanday masala malakali mutaxassislar bilan hamfikrlikda ko'rilgandagina bir-biriga qarama-qarshi fikrlar bo'lsa ham chuqur o'rganiladi, unga eng maqbul yechim topiladi. Rahbar yetuk mutaxassis bo'lmasa ham, ilg'or tashkilotchi bo'lmog'i shart va atrofida har bir sohaning malakali mutaxassislarini yig'a bilishi kerak!

Bugun davr taqozosi bilan yo'l qo'yilgan kamchiliklarni tuzatishga harakat qilinmoqda. Har bir sohada adolatli tizim o'rnatilishi maqsad qilingan. Bolalar bog'chasiga qabul qilishdan tortib, oliy o'quv yurtining kirish imtihonlarigacha isloh etildi. Respublikamizning chekka hududlaridagi maktablarda mutaxassis o'qituvchilar yetishmasligining oldini olish maqsadida 50 foizdan 100 foizgacha ustama haq to'lanishi joriy qilindi. Xorijga chiqib ketgan, u yerda faoliyat yuritayotgan malakali yurt-doshlarimizni ona yurtga qaytarish masalasiga ham jiddiy e'tibor qaratilmoqda...

Shu bilan muammo hal bo'ladimi? Yo'q, albatta! Qachonki har bir inson o'z ustida ish-lasa, xato va kamchiliklaridan to'g'ri xulosa qila olsa, mutaxassislar o'zining vazifasini bajarsa, rahbarlar ularning fikri bilan hisoblashsa va shundan kelib chiqib, muammoning yechimini belgilasa yoki muhim chora-tadbirlarni ishlab chiqsa, davlat rahbari belgilagan dasturlar tezroq amalga oshadi.

Sevara ZOKIROVA, O'zJOKU 2-bosqich magistranti.

Respublika ishchi guruhi:

Yoshlar markazi hokimlik ixtiyorida, yetakchilar faoliyatida kamchiliklar bor, inshootlar ta'mirlab...

Yoshlar siyosati va sport vazirligi huzuridagi Yoshlar ishlari agentligi direktori o'rinbosari Feruz Ablayorov boshchiligidagi respublika ishchi guruhi vazirlik tarkibidagi viloyat yoshlar siyosati va sport boshqarmasi hamda yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi tomonidan o'tgan yil amalga oshirilgan ishlar, sohadagi muammo va kamchiliklar, joriy yilgi rejalar va "Besh tashabbus olimpiadasi"ning yangi mavsumiga tayyorgarlik ko'rish ishlarini hududlarga borib o'rgandi.

O'rganish davomida Payariq, Toyloq, Urgut, Paxtachi va Narpay tumanlaridagi sport inshootlarining holati, yoshlar yetakchilarining faoliyati o'rganildi, muammo va kamchiliklar tahlil qilindi.

Payariq tumanida olib borilgan o'rganishlar davomida bir qator muammolar aniqlandi. Vazirlik Mahkamasining 2021-yil 15-iyundagi "2021-2022-yillarda Samarqand viloyatining Payariq tumanini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, tumandagi 1-bolalar o'smirlar sport maktabining Go'zal mahallasidagi "Yoshlik" futbol o'yin-gohini respublika budjetidan rekonstruksiya qilish va 18x36 hajmdagi yangi sport zali qurish kungacha amaliy ishga qo'l urilmagan.

Payariq tumani 1-bo-lalar o'smirlar sport maktabi direktori Mansur O'sarovning ta'kidlashicha, "Yoshlik" futbol o'yin-gohini ta'mirlash va yangi sport zal qurish respublika bud-jetidan qilinishi kerak edi. Ammo loyihadagi o'zgarishlar sabab obyektlarda qurilish-ta'mirlash ishlari olib borilmagan. Hozir-gi kunda o'yin-gohda yoshlarga futbol mashg'ulotlari muntazam o'tkazilib kelinmoqda va o'yin-goh-

ni rekonstruksiya qilish, sport zali qurish bo'yicha kelgusi yillarda manzilli dasturga kiritish choralarini ko'rilmoqda.

Shuningdek, tumandagi Yoshlar markazi binosiga Yoshlar ishlari agentligi balansiga o'tkazilmagan. Yoshlar qamrovi, ularning manfaatlari uchun xizmat qilishi belgilangan ushbu obyektida hokimlik topshirig'iga asosan yoshlar siyosatiga aloqador bo'lmagan tuman tashkilotlari faoliyat olib bormoqda. Markazda yoshlarning intellektual salohiyati yuksalishiga taalluqli birorta to'garak tashkil etilmagan.

- Biz faoliyat yuritayotgan bino sobiq yoshlar ittifoqi tuman kengashi balansida turibdi, - deydi Yoshlar ishlari agentligi Payariq tumani bo'limi bo'shlig'i Murod Begimqulov. - Yoshlar markazi binosini Yoshlar ishlari agentligi tumani bo'limi balansiga o'tkazib berish yuzasidan 2022-yil 27-aprelda tuman hokimligiga xat yuborganmiz. Ammo tuman hokimligi binoni o'tkazish uchun viloyat hokimining qarori kerakligini va keyin tuman hokimining qarori chiqarilishini ma'lum qildi. Shu kungacha binoda faoliyat yuritgan tuman kommunal bo'limi va tuman investitsiya bo'limi binoni tark etdi. Hozir markazda ingliz tili va IT yo'nalishi bo'yicha

to'garak tashkil etish ishlari olib borilmoqda.

Urgut tumanidagi 1-sport maktabi zalining pol qismi yaroqsiz holga kelib qolgan. Sport turlari bo'yicha o'quv qo'llanma va shug'ullanish uchun sport jihozlari yetishmaydi. Tuman mas'ullarining ma'lum qilishicha, zalning pol qismi tumanning sport inshootlarini ta'mirlash manzilli dasturiga kiritilgan. Shuningdek, sport turlaridan o'quv qo'llanmalar bilan ta'minlash bo'yicha Yoshlar siyosati va sport vazirligiga takliflar berilgan bo'lsa, qo'shimcha sport jihozlari olish mahalliy budjet mablag'lari hisobidan amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

Toyloq tumanidagi yoshlar yetakchilari faoliyati o'rganilganda "Besh tashabbus olimpiadasi"da ishtirok etish uchun yoshlarni onlayn ro'yxatdan o'tkazish ishlari ayrim mahallalarda sustligi va "Yoshlar balansi" elektron platformasi orqali tahrirlanmagan so'rov-nomalar ko'pligi aniqlanib, yetakchilarga uslubiy ko'mak berildi.

Paxtachi tumanidagi o'rganishlar davomida mahallalardagi yoshlar yetakchilarining huquqiy savodxonligini oshirish, tuman va shaharlardagi yoshlar yetakchilari bilan tajriba almashish bo'yicha doimiy o'quvlar tashkil

etish choralarini ko'rish belgilandi. Shuningdek, tumandagi sport maktabining 2 ta filiali va ularga qarashli 3 ta sport inshootining holati bilan tanishildi.

Narpay tumanidagi o'rganishlar respublika ishchi guruhining sayyor qabuli bilan boshlandi. Qabulda yoshlarni qiynab kelayotgan murojaatlar tinglanib, yechimi yuzasidan mas'ullar birlashtirilgan hamda yetakchilarga "Yoshlar daftari" va "Yoshlar balansi"ni shakllantirish bo'yicha tushuntirish berildi.

O'rganishlar yakunida ishchi guruh va boshqarmalar mas'ullari ishtirokida yig'ilish o'tkazildi. Yig'ilishda "Besh tashabbus olimpiadasi"da qatnashish istagini bildirgan yoshlar ro'yxatini shakllantirish bo'yicha tushuntirish nazorat qilish kerakligi ta'kidlandi. Shuningdek, "Yoshlar balansi" orqali qizil toifaga ajratilgan va ushbu toifaga mansub 44 ming 855 nafar yoshlarni sport mu-rabbiylariga birlashtirish, "Yoshlar daftari"ga kiritilgan 2775 nafar yoshlarga amaliy yordam berish va daftarga kirish istagini bildirgan 140 nafar yoshlarning arizasini o'z vaqtida ko'rib chiqish bo'yicha chora-tadbirlar belgilandi.

Fazliddin RO'ZIBOYEV.

Ko'pincha qaysidir bir masaladagi sanitariya normalari haqida gap ketganda, ko'pchiligimiz sarlavhadagi savolni o'rtaga tashlaymiz. Xo'sh, aholi orasida "SES" deya nom olgan tashkilot bu muammolarga "qarash"ga qanchalik haqli?

"SES" qayoqqa qarayapti?

Viloyat sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasi mutasaddilari ishtirokida o'tkazilgan matbuot anjumanida shu masalalar muhokama etildi.

- Metalga ishlov berish zavodlarida metal changi tarkibidagi zaharli moddalar inson nafas organlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi, kuchli shovqin esa eshitish organlari zo'riqishiga sabab bo'lishi mumkin, - deydi viloyat sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasi bo'lim boshlig'i Berdiboy Alimov. - Sement ishlab chiqaradigan zavodlarga yaqin joyda istiqomat qiluvchi fuqarolarda ham qator kasalliklar uchraydi. Jumladan, sement changi bilan birgalikda kremniy va oksikremniy moddalari ajralib chiqadi. Natijada insonning o'pka bronxlariga changning oz-ozdan tushib borishi orqali surunkali o'pka kasalliklari yuzaga keladi.

Viloyatdagi aloqa kompaniyalari tomonidan joylarda mobil aloqa stansiyalari o'rnatilgan. Bu bazalar ham elektromagnit maydoni kuchlanishni hosil qiladi. Agarda elektromagnit maydoni kuchlanishi miqdori me'yordan ortiq bo'lsa, insonning asab tizimi buzilishi, xoti-raning susayishi, ichki organlariga ham kuchli ta'siri kuzatiladi.

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan zavod va fabrikalarda mazkur soha me'yorlariga nechog'lik amal qilinadi, u xalqaro talablarga mosmi? Ushbu savolimizga quyidagicha javob oldik.

- Boshqarma xodimlari tegishli hujjatlariga ko'ra tadbirkorlik subyektlarini to'g'ridan-to'g'ri tekshirishga haqli emas, - deydi viloyat sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasi mas'uli Asadilla Bakirov. - Faqatgina u yoki bu korxonadan shikoyat tushgan taqdirdagina o'z sha'rdagi ahvoli to'liq o'rganishimiz va xulosalarni taqdim etishimiz mumkin.

To'g'risini aytadigan bo'lsak, yuqorida nomlari keltirilgan zavodlarda ishchilarga zarur shart-sharoit yaratish masalasida "SES" tekshiruviz ham talay muammolar borligini yaxshi bilamiz. Afsuski, bu masala hamon qaysidir jihatdan yopiqchilik va to'la oshkor etilmay kelinmoqda.

Gulruh MO'MINOVA.

DINIY TA'LIM UCHUN XORIJGA BORISH SHART EMAS

Hadis ilmi maktabida xorijda diniy ta'lim o'layotgan o'quvchi va talabalarning turli diniy oqimlar, yot g'oyalar ta'siriga tushib qolishining oldini olish, ularning yurtimizda ta'limni davom ettirishlariga imkon yaratish masalalarini muhokama qilish maqsadida ularning ota-onalari va yaqin qarindoshlari bilan uchrashuv tashkil qilindi.



Uchrashuvda viloyat din ishlari bo'yicha qo'mita rahbari, DXX viloyat boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari, viloyat hokimining diniy va ijtimoiy masalalar bo'yicha o'rinbosari hamda diniy ulamolalar ishtirok etdi.

Ishtirokchilar globalashuv davrida yoshlar tarbiyasi va ongiga bo'layotgan tahdidlar, yot g'oyalar qurboni bo'layotganlar xususida to'xtildi.

- 2022-yilning iyun oyi holatiga ko'ra, viloyatimizdan Misr Arab Respublikasiga diniy ta'lim olish uchun 187 nafar voyaga yetmagan yoshlar chiqib ketgan, - dedi viloyat hokimining diniy va ijtimoiy masalalar bo'yicha o'rinbosari Bahodir Qodirov. - Tegishli ishchi guruh ishtirokida yoshlarning ota-onalari va yaqinlari bilan olib borilgan tushuntirishlar natijasida o'tgan yil 60 nafar, joriy yilning o'tgan davrida 43 nafar yoshlar oilasi bag'riga olib kelindi. Shuningdek, joriy yilda 6 nafar voyaga yetmagan shaxsning xorijga chiqib ketishi oldi olingan bo'lsa, 6 nafari Misr Arab Respublikasiga chiqib ketganligi aniqlandi. Misrga ketgan voyaga yetmagan bolalarning ota-onalari qonunchilik talablariga bo'ysunmagandligi uchun tegishli tartibda javobgarlikka tortildi.

Tadbirda diniy ulamo va hadis maktabi talabalari tomonidan yurtimizda ham diniy ta'lim olish uchun barcha sharoitlar yaratilgani ta'kidlanib, ota-onalarga farzandining kelajagiga befarq bo'lmashliklari tushuntirildi.

F.FAXRIDINOV.

BU FAKT!

Statistika agentligining dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilning dastlabki ikki oyida respublikamizda:

- reklama va bozor konyunkturasini o'rganish sohasidagi xizmatlar hajmi 302,5 milliard so'mni tashkil etgan;
- yengil avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish bo'yicha xizmatlar hajmi 577,8 milliard so'm bo'ldi. Ushbu xizmatlar umumiy hajmida 25,9 foiz bilan Toshkent shahri yetakchilik qilgan;
- yirik korxonalar tomonidan 10 ming dona sovutkich ishlab chiqarilgan;
- nashriyotchilik xizmatlari hajmi 172 milliard so'mni tashkil etgan;
- yirik korxonalar tomonidan 585 dona motosikl ishlab chiqarilgan.

G'allani kasallikdan himoya qilishda nimalar muhim?

Viloyatimizda 2023-yil hosili uchun 108 ming gektardan ortiq maydonda kuzgi g'alla parvarishlanmoqda. Undan yuqori va sifatli hosil olishda bug'doyning zararli organizmlariga qarshi uyg'unlashgan himoya tizimini to'g'ri tashkil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.



Bu borada o'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti Samarqand mintaqaviy filiali ilmiy jamoasi ham bir qator tizimli ishlarni amalga oshirib kelmoqda. Joylarda g'alla va boshqa qishloq xo'jalik ekinlarining zararli organizmlarga qarshi kurashishning yangi ilmiy asoslangan usullarini qo'llash bo'yicha o'quv va amaliy seminarlari tashkil qilmoqda. Samarqand sharoitida g'alla ekinlarining zang, un-shudring, septarioz va fuzarioz ildiz chirish kasalliklari tarqalib, ekinga sezilarli darajada zarar yetkazadi.

Kasalliklardan eng keng tarqalgani

bug'doyning qo'ng'ir zangi (barg zangi) hisoblanadi. U O'zbekistonda va barcha bug'doy ekiladigan mintaqalarda har yili uchraydi, ba'zi dalalarda kuchli rivojlanadi.

Sariq zang O'zbekistonning barcha bug'doy ekiladigan mintaqalarida har yili uchramaydi. Odatda Surxondaryo viloyatining ayrim tumanlarida ko'proq kuzatiladi. Bu kasallik bir necha (6-10) yilda bir marta tarqalishi va epifitotiya shaklida rivojlanib, hosilga juda katta zarar yetkazishi mumkin. Oxirgi bunday epifitotiya 1999-yilda kuzatildi, bunda kasallik Surxondaryo viloyatida boshlanib,

Sirdaryo viloyatigacha bo'lgan hududlarda rivojlanib, aksariyat dalalarda hosilning kamida 40-50 foizini nobud qildi.

G'alla ekinlarining un-shudring kasalligini qo'zg'atuvchi zamburug'ning koni diyalari shamol bilan boshqa o'simliklarga oson tarqaladi va ularni zararlaydi. Un-shudring 15-20 daraja va havoning 96-99 foiz nisbiy namligida juda tez tarqaladi va rivojlanadi. Zamburug' bilan zararlardan g'alla o'simliklarida hamda yovvoyi holda o'sayotgan boshqoqli o'larda miseliy vositasida qishlaydi.

Bu kasalliklarga qarshi kurash chorasi sifatida almashlab ekish, urug'likni funksid bilan dorilash, yerni belgilangan chuqurlikda shudgorlash, bahorgi va kuzgi g'alla ekinlarini yaqin joylashtirish, kasalliklarga chidamli navlar yaratish, ekish va kasalliklar kuchli tarqalish xavfi bo'lganda tavsiya qilingan funksidlardan foydalanish zarur.

Xidirali BOTIROV,
SamDU ekologiya va hayot faoliyati xavfsizligi kafedrasini professori.
Quvonchbek TURSUNOV,
O'simliklar karantini va himoyasi ITI Samarqand filiali Kichik ilmiy xodimi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi tomonidan 2030-yilga borib, OIV epidemiyasiga barham berish uchun «95-95-95» strategiyasi o'lg'a surilgan bo'lib, unga ko'ra, OIV infeksiyalari 95 foizi o'z maqomini bilishi, 95 foizi maxsus davolash kurslari bilan qamrab olinishi hamda 95 foizi qonida virus yuklamasi aniqlanmaydigan darajaga tushishiga erishish maqsadi belgilangan.

OIV infeksiyalari onalardan tug'ilgan bolalar quruq sut aralashmasi bilan ta'minlanadi

Hozirda mamlakatimizda OIV infeksiyalari shaxslarning 85 foizi o'z maqomini biladi, retrovirusga qarshi maxsus terapiya bilan davolash qamrovi 79 foizni, virus yuklamasining pasayishi 74 foizni tashkil etadi. Yaqinda davlat rahbarining «Odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasallikka qarshi kurashish tizimini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga ko'ra, «Aholi orasida OIV infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga doir 2023-2027-yillarga mo'ljallangan kompleks chora-tadbirlar dasturi» tasdiqlandi.

Ushbu dasturni amalga oshirish uchun 2023-2027-yillarda 120 milliard so'm va 54 million dollar (davlat budjetidan 110 milliard so'm va 28 million dollar, shuningdek, OITSga, sil kasalligiga va bezgakka qarshi kurashish Global jam'arasi mablag'lari hisobidan 18 million dollar, Osiyo taraqqiyot banki hamda Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar bankining qarz mablag'lari hisobidan 7,5 million dollar, xalqaro tashkilotlardan 9,5 milliard so'm grant mablag'lari) yo'naltirilishi belgilangan.

Dastur doirasida har yili kamida 3 million aholi tekshirular bilan qamrab olinadi va buning uchun 11,4 million dona diagnostik test-tizimlari xarid qilinadi. OITSga qarshi kurash markazlari OIV infeksiyasi diagnostikasi va davolash samaradorligini monitoring qilish uchun zarur 587 mingta diagnostik vositalar bilan ta'minlanadi. 50 ming nafar aholini maxsus



davolash kurslari bilan qamrab olish uchun 22 turdagi retrovirusga qarshi dori vositalari xarid qilinadi. OIV infeksiyasining onadan bolaga yuqishiga barham berish maqsadida OIV infeksiyalari onalardan tug'ilgan 2 ming nafardan ortiq 6 oygacha bo'lgan bolalar quruq sut aralashmasi bilan ta'minlanadi. Kasallikning oldini olish borasida shu va shu kabi yana qator ishlar amalga oshirilishi belgilangan.

SH.ARZIYEV,
L.SHEVQIYEVA,
viloyat OITS markazi mutaxassislari.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tekzor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

Abulqosim XALILOV

Beshafqat o'lim ajoyib inson, tajribali huquqshunos "Bog'ishamol" advokatlar hay'ati advokati Abulqosim Xalilovni oramizdan olib ketdi.

A.Xalilov 1960-yilda Samarqand tumanining Navbog'chiyon mahallasida tug'ildi. Huquq sohasiga bo'lgan qiziqishi bois o'rta maktabni bitirib, Samarqand davlat universitetining huquqshunoslik fakultetiga hujjat topshirdi. Sinovlardan muvaffaqiyatli o'tib, talablikka qabul qilindi.

Bo'lajak huquqshunos ish faoliyatini talablik davridayoq boshladi. 1983-1990-yillarda viloyat sudida sud majlisi kotibi, katta maslahatchi sifati-

da ishladi. Undagi iqtidor va rahbarlik qobiliyati namoyon bo'la boshlagach, sobiq Siyob tumani sudida stajyor sudya sifatida ishladi. Shundan so'ng 1991-yildan Samarqand tumani sudi sudyasi, 1995-2005-yillarda Samarqand viloyati sudi sudyasi lavozimlarida samarali mehnat qildi.

Keyinchalik "Aloqabank" Samarqand filiali va "Samarqand kinap" OAJda huquqshunoslik qildi. 2006-yildan Samarqand shahar 1-davlat notarial idorasi advokati, 2007-yildan "Samarqand SamAz" OAJ huquqshunosisi, 2009-2012-yillarda Samarqand shahar "Mustaqil

advokatura" va "Kuch adolatda" advokatlik firmalarida, 2012-yildan umrining oxirigacha "Bog'ishamol" advokatlar hay'atida advokat sifatida ishladi. Advokatlik faoliyati bilan birgalikda Navbog'chiyon mahallasidagi maktabning yuqori sinf o'quvchilariga huquqshunoslik fanidan dars berdi.

Abulqosim Abdubuhobovich sudya sifatida davlat nomidan ish yuritir ekan, har bir qarorini puxta o'ylab chiqarardi. Bu fuqarolarning davlatga ishonchini o'rta-rtirishga xizmat qildi. O'zining tashabbuskorligi, halolligi va to'g'ri maslahatlari bilan hamkasblari orasida hurmat qozondi.



Aziz hamkasb, jonkuyar va mehribon do'st Abulqosim Xalilovning porloq xotirasini hamkasblari, shogirdlari qalbida mangu yashaydi. Uning oila a'zolari va yaqinlariga hamdardlik bildiramiz.

SAMARQAND SHAHAR "BOG'ISHAMOL" ADVOKATLAR HAY'ATI JAMOASI.

MEHNAT YARMARKASI TASHKIL ETILADI!



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbarining 2023-yil 7-fevraldagi 02-PA 1/1-254-topshiriq xati bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talaba-yoshlar bilan ishlash samaradorligini oshirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga qaratilgan yagona tadbirlar kalendar rejasi"ning 25-bandida "Oliy ta'lim muassasalari talabalari, ayniqsa, bitiruvchilarning bandligini ta'minlash maqsadida ish beruvchilarni jalb qilgan holda "Karera kuni" mehnat yarmarkasini tashkil etish" vazifasi belgilangan.

Ushbu topshiriq ijrosini ta'minlash maqsadida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan reja-jadvalga muvofiq Samarqand davlat tibbiyot universitetida joriy yilning aprel oyida mehnat yarmarkasi tashkil etish belgilangan.

Shu munosabat bilan 2023-yil 28-aprel kuni soat 10:00 da "Karera kuni" mehnat yarmarkasi bo'lib o'tadi.

Davr talablariga mos bo'lgan bilim va ko'nikmalarga ega yosh tibbiyot mutaxassislarga ehtiyoji bo'lgan davlat va nodavlat tibbiyot muassasalari vakillarini yarmarkaga taklif etamiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 18-uy.
Murojaat uchun telefon: +99866-233-28-17.

UNIVERSITET MA'MURIYATI.



ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Chuqur yo'l ko'chasi, 9-B uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Yakubova Rayaga (2008-yil 28-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.

BEKOR QILINADI
Samarqand shahridagi "SAMARQAND PILLA URUG'CHILIK" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 201947208) dumaloq muhri yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Fuqaro Soatova Nasiba Salomovnaga qarashli Samarqand shahri Laxutiyo ko'chasi, 3-uy, 10-kvartiraning kadastr raqami: 14:16:03:01:15:1487:0001:010) va oldi-sotdi shartnomasi (Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bahromov Jamshid Qo'ldoshevich notarial idorasidan 2022-yil, 18-noyabrda tasdiqlanib, 10446 raqam bilan reestrga kiritilgan) yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Fuqaro Davranov Alisher Tuxtayevichga qarashli Samarqand shahri Istiqlol ko'chasi, 18-"A" uy, 12-kvartiraning oldi-sotdi shartnomasi (Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Dilura Hasanovna notarial idorasidan 2023-yil, 31-yanvarda tasdiqlangan) yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Samarqand shahridagi "SAM STAR 777" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 308324294) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Samarqand shahridagi "MUHABBAT SEVINCH" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 305501582) dumaloq muhri yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Djaxonova Matlabga (2016-yil 17-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Oqdaryo tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Sa'dullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasida marhum Asatullayev Gulomaliga (2015-yil 6-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Sa'dullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Oqdaryo tumani Loyish shaharchasi Amir Temur ko'chasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Barakayev Karimjoniga (2016-yil 20-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 200-uy, 3-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasida marhum Xasanov Rustamga (2021-yil 14-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ahtamov Erkinjon Tolibjonovich notarial idorasida marhum Yuldashv Sobirjoniga (2022-yil 25-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ahtamov Erkinjon Tolibjonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani Andijoni mahallasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahriyevna notarial idorasida marhum Bogdanova Lora Viktorovna (2022-yil 7-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ismoilova Shahlo Bahriyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasida marhum Ismatov Israilga (2022-yil 17-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Badeeva Naziya Vladimirovna (2002-yil 30-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Zebuniso ko'chasi, 4-"A" uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Badeeva Naziya Vladimirovna (2002-yil 30-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Radjabov Maxmudjoniga (2004-yil 24-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasida marhum Gafurov Baxron Xakorovichga (2018-yil 23-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning

Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Nodira-begim ko'chasi, 5/1-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Rozikov Narziqul Hojiyevichga (2021-yil 12-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Tursunova Salomat Uroqovnaga (2019-yil 15-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Kindjayeva Musharraf Ubaydullayevnaga (2011-yil 21-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 200-uy, 3-xona.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otobek Bolbekovich notarial idorasida marhum Nematov Nazir Jalalovichga (2022-yil 18-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otobek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasida marhum Djalalov Anvarjon Zaynidinovichga (2022-yil 20-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros



Munosabat

Kinodan maqsad nima?

"Zarafshon" gazetasi 2023-yil 11-martdagi sonida berilgan "Milliy seriyalar: Ma'naviyatimiz uchun malhammi yoki zahar?" sarlavhali maqolani o'qib, bir turkiyalik mehmon bilan bo'lgan suhbatimiz yodimga tushdi. Unda gapimiz aylanib, xalqimizning madaniyatidagi o'xshashlik va farqlarga kelib to'xtaldi. Shunda u to'satdan, "Men sizlarda ayollar juda shatta bo'lsa kerak, deb o'ylab yurgandim", deb qoldi. Hayron bo'ldim va undan bu fikriga izoh berishni so'radim.

- Men ilgari turkchaga tarjima qilingan o'zbek filmlarini ko'rganman, - deya gapida davom etdi suhbatdoshim. - Bu yerda ham ko'rib boryapman. Sizlardagi kinolarda ayollar sadoqatsiz, mojarolarning sababchisi sifatida ko'rsatiladi. Lekin aslida bunday emasga o'xshaydi. Yoki, men adashyapmanmi?

Avvaliga mehmonning bu so'zlaridan taajjubga tushdim, jahlim chiqdi. Ammo vaqt ajratib, milliy filmlarimizning bir nechtasini ko'rganimdan so'ng uni tushundim. Darhaqiqat, filmlarimiz xalqimiz turmushida uchraydigan jamiki illatlar, salbiy voqeeliklarga "to'ydirilgan" ekan. Odamlarni tarbiyalashga emas, faqat g'azablanishga, o'zligidan nafratlanishga olib keladigan voqeeliklar. Eng yomoni, ularda o'zbek ayolining iffati, qadr-qimmatini shu qadar yerga urilyaptiki, asabingni buzmasdan ko'rolmaysan.

Shu bois ayni masaladagi qarashlarim, fikrlarimni jamlab, qog'ozga tushurishni o'ylab yurgandim. Yuqoridagi maqolani o'qib, muallif barchamizning dilimizdagi gaplarni yozganiga, mavzu doirasida chuqur mulohaza yuritganiga amin bo'ldim.

Xususan, unda muallif kino san'atimiz ancha vaqt e'tibordan chetda qolganini, lekin bu uning o'z g'oyasi, maqsadidan to'yib, "antitarbiya" bilan shug'ullanishiga asos bo'lmasligini ta'kidlaydi. Bu ayni haqiqat. Ish faqat sohadagi texnik muammolarga bog'liq bo'lganda, kino san'atimizning durdonalari bo'lgan "O'tkan kunlar", "Yor-yor", "Shum bola", "Mahallada duv-duv gap", "Temir xotin" kabi filmlar tasvirga olinmagan yoki olinsa ham vaqt o'tishi bilan o'zining qadriini yo'qotgan bo'lar edi.

Men xalqimizning o'tgan asrdagi ahvoli-ni, mustaqillikning birinchi yillari ko'rgan qiyinchiliklarini, tiklanish davri va hozirgi zamon voqeeliklarini ko'rganman. Milliy kino san'atimiz ko'rsatayotgandek, bu davrlarda

faqat mug'ombirlaru kazzoblar "zo'r" bo'lib, qolganlar xor bo'lgan emas. Halol mehna-ti bilan qiyinchiliklarni yengib o'tgan, elga tanilgan, dunyoga yuzlanganlar qancha? Agar shunday imyon-e'tiqodi butun shaxslarning muvaffaqiyatlarini ko'rsatadigan filmlar olinsa, ularning timsolida xalqimizning ilg'origini ko'rsatgan bo'lmasdikk?

Muallif maqolasida kino san'atining yashirin tarbiyasi to'g'risida ham juda o'rinni va ta'sirchan misollarni keltirgan. Bunga qo'shimcha sifatida aytishim mumkinki, mustabid tuzum vaqtida ham televideniya ayollarimizning xulqini buzishga qaratilgan bir reklama doimiy ravishda berib borilgan ekan. Bunda "Zamonaviy ayol qanday bo'ladi", degan savolga kalta yubka, oldi ochiq ko'ylak kiygan, qo'lida sigareta tutgan, qisqasi, o'tgan-ketgan erkaklarning e'tiborini o'ziga tortadigan ayol qiyofasi beriladi. Bu g'oyaning ta'sirini haligacha yo'qota olganimiz yo'q. Aksincha, uni o'z qo'limiz bilan kuchaytirishda davom etyapmiz. Televideniye ana shunday kuchga ega.

Bu mavzu bo'yicha hali ko'p gapirish mumkin-u, har gapni aytaverishdan andisha qilamiz. Uyatni bilmagan ayrim "ijodkor"larga uyatsizlik bilan javob qaytargan bo'lmaylik, axir.

Munosabatimizning sarlavhasiga kelsak, maqsadiga ko'ra kinoasarlarda odamlarga ma'naviy oziqa berishi, ularni to'g'ri yo'lga boshlashi kerak. Xo'sh, bugungi kinolari-mizning qanchasi shu talabga javob beradi? Ijodkorlar, o'zidan rejissyor yasab olganlar masalaning bu tarafini ham o'ylab ko'rishsa, yaxshi bo'lar edi. Madaniyatimizni yuksaltirishning uddasidan chiqolmas ekansiz, uni buzishga ham urinmang.

Mamayunus PARDAYEV, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti professori, iqtisod fanlari doktori.



Qo'limizdagi xavf

Smartfon va telefonlar hayotimizning ajralmas qisimga aylanib qoldi. Tom ma'noda biz ularsiz yashay olmaydigan bo'lib, tun-u kun ajralmas "hamroh"imizga aylantirdik.

Ma'lumotlarga ko'ra, telefon cho'ntakdagi kichik mikroto'lqinli pech kabi sog'lik uchun zararli. U butun organizmga - bosh miya qobig'i, yurak va jinsiy tizimga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Undagi nurlanish esa rentgen quvimlari kabi ionlovchi xususiyatga ega. Telefonda soatlab gaplashish esa surunkali bosh og'rig'iga sabab bo'lishi va undagi mikroorganizmlar turli kasalliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

Gap mobil telefonni rad qilish to'g'risida emas, balki undan oqilona foydalangan holda zararidan saqlanish to'g'risida ketmoqda. Yuqoridagi qaydlar masalaning bir tomoni bo'lsa, yana bir muhim jihati shundaki, telefon va u bilan o'tayotgan har lahzamiz, yaqinlarimiz diydoridan chalg'ituvchi, ularidan uzoqlashtiruvchi omilga aylanib borayotgandek, vaqtimizni va ongimizni o'g'irlyotgan telefonda ko'ngilochar tarmoqlar, turli o'yinlar oila davrasidagi fayzli shukuhga soya solayotgandek nazarimda.

Yaqinda bir o'rtog'imnikiga mehmonga bordim. Kechki payt

hamma ishdan qaytgach, oila dasturxon atrofida jam bo'ldi. Shu payt "Ovqatni suzaylikmi, dadasi?" deb so'radi o'rtog'imning xotini. Telefonidan boshini ko'targisi ham kelmagan o'rtog'im "Jim" deya javob qaytardi. Biroz vaqt o'tgach, kunini maktabda o'tkazgan bo-lakay sog'ingan otasiga erkalanib, quchog'iga bordi. Ammo ota inkor etuvchi harakat va keskin ogohlantiruv bilan yana "Jim" deb telefonini stolga zarb bilan urdi. Rosti, do'stim muhimroq ish bilan band bo'lsa kerak, deb o'ylagandim. Telefoniga qaragam, bor-yo'g'i qandaydir bir o'yin o'ynayotgan ekan.

Ko'z oldimizdagi bu hol aslida fojiani o'zi. Bilsangiz, o'sha bolangizni mahkum etgan "jim"lik lahzalaringiz, aslida hayotingizning umr deb atalgan g'animat onlari badaliga sarflanmoqda. Kech bo'lmasidan, oilangizdagi o'sha qadrlil va qimmatli bo'lgan "jimlik vaqtida" farzandlaringiz uchun jim bo'lmang va xonadoningizda telefonda turli o'yinlar yoki seriallardagi aktyorlar emas, o'zingiz bosh rolni egallang.

Shuhrat NORMURODOV.

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 17 672 nusxada chop etildi. Buyurtma 215. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.



O'tgan asrning 15-20-yillari nafaqat tariximiz, balki jurnalistika, adabiyot, ma'rifat uchun ham murakkab davr edi. Samarqand shahrida tug'ilib, Buxoro va Samarqandda ishlagan, ijod qilgan Akobir Shomansurov ana shu qiyin va murakkab davrda yashab, jurnalist, muharrir, noshir sifatida nom qozongan.

1913-yil aprel oyida Mahmudxo'ja Behbudiy "Samarqand" gazetasi chiqara boshlagani-da A.Shomansurov muallimlik bilan mashg'ul bo'lgan. "Samarqand"ning 45-soni chop etilgach, gazeta moddiy qiyinchiliklari ortidan to'xtatildi. Bundan keyin Akobir Shomansurov va Qo'qon jadidlaridan Mirzohid Miroqilov odamlar orasida yurib, gazeta o'quvchilarini topadi va 200 nafar mushtariydan 500 so'm to'playdi. Bu haqda muharrirga aytib, gazetani chiqarishni davom ettirishni so'raydi. Ammo bu mablag', oz sonli mushtariy bilan gazetani qayta tiklab bo'lmaydi.

Shundan keyin Akobir Shomansurov muallimlik bilan birga gazeta chiqarish, davr muammolarini aks ettiruvchi maqolalar yozishga kirishadi. Behbudiy va ularning safiga qo'shilgan jadidlar ko'magida gazeta yana chiqa boshlaydi. Gazetaga asosan Akobir Shomansurov, Said Rizo Alizoda, Hoji Muin, Rojij, Siddiqiy, Nurmuham-madbek o'g'li, Ibrohim Said Kamol o'g'li va boshqalar maqola yozib turadilar.

1916-yilning kuziga borib, gazeta yana moddiy qiyinchilik tufayli chop etilmay qoladi. Buxoroda o'qituvchilik qilib yurgan Abdurauf Fitrat 1917-yilning boshida Samarqandga keladi.

Ijoddan zavqlanib yashayotganlar

Toyloq tumanida shoir va jurnalist Abdulla Nisoriy tavalludining 65 yilligi hamda faxriy jurnalist Umida Qurbonovaning 60 yilligi munosabati bilan ijodiy uchrashuv o'tkazildi.

Toyloq tumani hokimligi, O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi viloyat bo'limi, Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi Toyloq tuman bo'linmasi hamda "Qo'shchinor" gazetasi tahriyati hamkorligida tashkil etilgan tadbirda yozuvchi-shoirlar, adabiyot muallimlari, yosh ijodkorlar qatnashdi.

Tadbirda so'z olganlar ikki ijodkorning uzoq yillik mehnat faoliyati, jurnalistikaga hamda o'zbek adabiyotidagi o'rni va ijodiy haqida fikr bildirishdi.

Jurnalist va g'azalnavis shoir Abdulla Nisoriy publitsistik maqolalari hamda o'zbek va tojik tillaridagi o'ndan ortiq she'riy va nasriy kitoblari, jumladan, "Sen tug'ilgan tong", "Xayolim gulga boylandi", "Bir dasta gul", "Yorga maktub", "Tuyuqlar devoni", "Kitob o'qigan bola", "O'zbekim boshida qalpoq" kabi ijod namunalari orqali xalqimizga yaxshi tanish. Gazetachilikning og'ir damlarida faoliyat yuritgan Umida Qurbonova haqida so'z borar ekan, o'sha damlarda gazeta tashkil etib, uni oyoqqa qo'yish oson bo'lmagan, tumanning "Qo'shchinor" gazetasi birinchi muharrirlik qilgani tilga olindi.

Tadbirda yubiley sohiblariga hamkor tashkilotlarning esdalik sovg'alari topshirildi. Nigina RAHMATOVA.

"Zarafshon" gazetasi - 110 yoshda AKOBIR SHOMANSUROV jonkuyar muharrir va noshir edi



Mahmudxo'ja Behbudiy bilan uchrashib, gazetani chop ettirish zarurligi haqida gaplashadi. Behbudiyning ko'magi, Mardonqul O'rin-boy o'g'li, Akobir Shomansurov, Mardonqul Shohmuhammadning moddiy qo'llab-quvvatlashi hamda "Zarafshon" shirkati homiyligida "Hurriyat" gazetasi ta'sis etadi.

Fitrat bir muddat «Hurriyat»ga muharrirlik qiladi, ammo o'qituvchilik va yozuvchilik ishlari ko'payganini aytib, gazeta chiqarishga mas'ullikni Akobir Shomansurov zimmasiga yuklaydi. Shunday qilib, A.Shomansurov 1917-yil 16-apreldan "Hurriyat" gazetasi muharriri bo'ladi.

Gazeta tezda o'z zamonasining muammolarini ko'tarib chiquvchi, odamlarni ilm olishga chorlovchi vositaga aylanadi. Biroq gazetada ishlab, kun o'tkazishning imkoni yo'q edi. Shu bois Akobir Shomansurov o'qituvchilik ham qiladi va yana muharrirlikni Fitratga beradi.

Akobir Shomansurov Samarqand jadidlari orasida muhim shaxslardan biri bo'lgan.

"Ko'mak", "Nashri maorif" jamiyatlarining tadbirlarida faol ishtirok etgan. Shuningdek, "Milliy ittihad" tashkilotining faol vakili bo'lib, 1920-yillarda yoshlarni nafaqat Turkistonda, balki xorijda ham o'qitish zarurligini angelaydi. Tashkilotning maqsadi ham shunga monand - Turkiston hududini ravnaq toptirish uchun kamida 1 million xalqni Turkiya va Germaniya-ga ish va o'qishga yo'llash edi. Shu bois Buxorodan Muso Sayidjonov, Toshkentdan Raf'at Hakim bilan birga 1922-yilda talabalarni Germaniyaga o'qishga yo'llashda bosh-qosh bo'ladi.

1923-yilda u Zokiriy degan "chekist" to-monidan otib o'ldirilgan. Akobir Shomansurov Samarqand shahridagi "Abu Darun" qabristoni-ga dafn etilgan.

Bahrom IRZAYEV, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori.



Nusratulla hayotning oltin qoidalariga rioya etib yashardi. Din ilmidan xabardor inson va ma'rifatlil ayol tarbiyasini olgani uchun avvalo, yuksak fazilatlarini o'zlashtira oldi. Maktabda birga o'qish davomida tilidan yomon so'z chiqqanini, birovga ovozi balaqatlab gapirganini eshitmaganmiz. Birga faoliyat ko'rsatganlar ham hozirgacha uning safdoshlariga va o'quvchilarga nihoyatda mehribon bo'lganligini eslashadi.

Zamonning odami

Nusratullaning odobi-ga, kamtarligiga, darslarni qoldirmasiga va uya vazifalarni puxta bajarib kelishiga barcha sinfdoshlar havas qilishardi.

Bu fazilatlar do'stimizga ke-yinchalik juda asqotdi. Buxoro davlat pedagogika institutini tu-gatib qaytgach, Paxtachidagi bir qator maktablarda va nihoyat o'zimiz o'qigan 24-maktabda dars berdi. Fizika muallimi N.Xidirovning fanni puxta bilishi, o'quvchilarga bilimni mohi-rona bera bilishi tilga tushdi. Shogirdlari birin-ketin tuman, viloyat fan olimpiadalarida g'oliblikni egallab, hatto respublika bosqichlarida sovrindor bo'la boshladi.

Bu orada do'stimiz ma'rifatlil xonadon vakilasi Zulfinor bilan turmush qurdi va tinch-totuv oilada birin-ketin ikki o'g'il, uch nafar qiz dunyoga keldi. Afsuski, Nusratulla to'ng'ich o'g'lining to'yini ko'ra olmadi.

Dardi bedavo ajoyib muallimni oramidanda bevaqt olib ketdi.

Ammo fidokorona xizmati bejiz ketmadi. Tajribali muallim tuman iqtidorli bolalar maktabi nufuzini oshirishga hissa qo'shdi, ko'plab iqtidor egalarini fanda ravon yo'lga boshladi. Natijada unga 2005-yilda "O'zbekiston xalq o'qituvchisi" unvoni berildi.

Nusratulla bilan maktabda musiqa to'garigiga qatnagan-miz, hatto 8-sinfdan keyin madaniy-oqartuv texnikumiga o'qishga boramiz, degan xayol ham qilganmiz. Keyinchalik bildimki, unda yaxshigina badiiy mahorat ham bor ekan, bir-biridan dilbar g'azallar yozgan.

N.Xidirov xalq o'qituvchisi unvoni nishonini deyarli taqmas-di, sababini so'rasam, ko'pning oldida uyalamam, derdi. Bir kuni o'qituvchilar malakasini oshirish institutiga uchrashuvga borsam, tajribasini o'rgatish o'rniga

tinglovchi sifatida oxirgi qatorda kamtargina o'tiribdi. Hammaga tanishtirdim. Auditoriya olqishladi, o'zi esa xijolat bo'ldi.

Yoshlarning mehribon, suyuqlik ustoziga aylanib ul-gurungan do'stimiz bedavo dard tufayli 2011-yil 15-dekabrda olamdan o'tdi. Darvoqe, tur-mush o'rtog'i ham bu judolikka ko'tara olmadi va to'rt oy o'tib bandalikni bajo keltirdi.

Agar hayot bo'lganida Nusratulla 70 yoshga to'lardi. Uning xotirasini yo'etib turib-miz. Shukur, do'stimizdan solih farzandlar, ajoyib shogirdlar qoldi. Nasim tajribali huquqshu- nos, Habibulla geolog, Iqbol, Dilbar va Nilufar esa ota kasbini tanlashdi. Har davramizda sinf-doshimizning ezgu fazilatlari va ibratini yo'qlaymiz, haqiga duo qilamiz. Chunki undagi fazilat-lar har qanday jamiyatda ham qadrga arzigulikdir.

Farmon TOSHEV.

Yoshligim, gul fursating qisqa bo'lurmi shunchalik, Kelding, o'tding ketib bir sham yonib o'chgunchalik.

Bo'lsa imkon, to'xta bir dam, bir nafas tark etmagin, Bor halovat, zallatingdan totinib ko'rgunchalik.

Men qadah oldim qo'lingdan, shodligimda yo'q adad, Sipqoray, kutgil, safosi-kayfini surgunchalik.

Zavqingga to'ymay ko'ngil afsusdadir, e voh, netay, Qancha orzu birla armon qoldi qon yutgunchalik.

Ne umid birlan kelib Nusrat g'azal bo'stoniga, Qo'uzatsa, shoshmagin, bir dasta gul uzgunchalik.

Ey nigor, sensiz bugun jismim ichinda jon yo'q, Gul yuzingni sog'inib, ko'rgim kelur, imkon yo'q.

Yuzda zulfingdan olib rang, qolmadi yorug' jahon, Osmonimda seningdek mahvashi tobon yo'q.

Vaslingga shaydo ko'ngil sendan bo'lak yor istamas, Chunki bu shaydo ko'ngilga sendayin jahon yo'q.

Gar nasib esa, uzoring nuridan borona olish, Vo'ajab, dunyoda menga bundan ulug' ehson yo'q.

Har daqiqa yodi vasling dog'ida dog'dir ko'ngil, Bilki, Nusrat qalbiga sendan aziz mehmon yo'q.

Nusratilla XIDIROV.

SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

- 20-APREL Primqul NURMONOV - (1911-1978) Payariq tumanida tug'ilgan. Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi. Qahramon. Jamol TURSUNOV - (1951-2001) Oqdaryo tumanida tug'ilgan. O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi a'zosi. Ahad HAYDAROV - (1911-1971) Samarqand shahrida tug'ilgan. Jarroh. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi.

- 21-APREL Xudoyberdi DONIYOROV - (1927-1991) Sirdaryo viloyatida tug'ilgan. Filologiya fanlari doktori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi. Mirzoqul ISMOILOV - (1958-2020) Payariq tumanida tug'ilgan. Qishloq xo'jalik fanlari doktori.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Korxonada manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da. Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir: A.SHERXOLOV. Navbatchi: X.ERNAZAROVA. Sahifalovchi: B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

